



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TURKMANISTON RESPUBLIKASI BILAN IQTISODIY HAMKORLIGI TARIXI 1991-2021-YILLAR

Shukurov Sobir Jurayevich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi (PhD)

Qalandarova Mohichehra

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, talaba

Annotatsiya

Ushbu maqolada 1991-2021-yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston Respublikasi o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik tarixi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ikki davlatning savdo-iqtisodiy, transchegaraviy, transport-logistika, neft-gaz sanoati va boshqa sohalar bo‘yicha shartnoma va bitimlar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek oliy darajadagi uchrashuvlar va huquqiy shartnomalarning ikki mamlakatlar tashqi aloqalarini rivojlantirish bosqichidagi o‘rni ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, Chorjo‘y shahri, neft-gaz, transport va logistika, suv-xo‘jaligi, savdo-iqtisodiy hamkorlik.

ИСТОРИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН С РЕСПУБЛИКОЙ ТУРКМЕНИСТАН 1991–2021 ГОДЫ

Шукуров Собир Джураевич

Шахрисабзский государственный педагогический институт, преподаватель (PhD)

Каландарова Мохичехра

Шахрисабзский государственный педагогический институт, студентка

Аннотация

В статье анализируется история экономического сотрудничества Республики Узбекистан и Туркменистана в период с 1991 по 2021 год. Также были рассмотрены встречи на высоком уровне и правовые соглашения, сыгравшие роль в развитии внешних связей двух стран. Транспортно-логистической, нефтегазовой и других сферах. Также были рассмотрены встречи на высоком уровне и правовые соглашения, сыгравшие роль в развитии внешних связей двух стран.

Ключевые слова: Республика Узбекистан, Республика Туркменистан, город Чарджоу, нефтегазовая, транспортная и логистическая, водохозяйственная, торгово-экономическая сферы сотрудничества.

HISTORY OF ECONOMIC COOPERATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN WITH THE REPUBLIC OF TURKMENISTAN 1991-2021

Shukurov Sobir Jurayevich

Shahrisabz State Pedagogical Institute, Lecturer (PhD)

Qalandarova Mohichehra

Shahrisabz State Pedagogical Institute, Student

Abstract

This article analyzes the history of economic cooperation between the Republic of Uzbekistan and the Republic of Turkmenistan from 1991 to 2021. The study examined contracts and agreements between the two countries in the areas of trade and economic cross-border cooperation, transport and logistics, the oil and gas industry, and other areas. The role of high-level meetings and legal agreements in the development of foreign relations between the two countries is also considered.

Keywords: Republic of Uzbekistan, Republic of Turkmenistan, city of Charjo‘y, oil and gas, transport and logistics, water management, trade and economic cooperation.

O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik aloqalari ikki davlatning barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi. Bu ikki mamlakat o‘rtasidagi ko‘p asrlik do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari har qanday huquqiy shartnomalar hamda bitimlarni imzolashda asosiy tayanch bo‘lib kelmoqda. So‘nggi yillarda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmining oshishi, iqtisodiyotning asosiy jabhalaridan bo‘lgan energetika va transport-logistika sohalaridagi yirik loyihalarning amalga oshirilishi ikki davlat iqtisodiy hamkorligini yangi bosqichga olib chiqdi.

1991-yilda O'zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari uchrashuvida O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash maqsadida davlat rahbarlari quyidagi majburiyatlarni o'z zimmlariga oldilar.

1-modda: Oliy ahdlashuvchi tomonlar bir-birlarini mustaqil davlat sifatida e'tirof etadilar va boshqa davlat mustaqilligiga xavf solishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarni qilmaslik majburiyatini oladilar.

2-modda: Oliy ahdlashuvchi tomonlarning har biri o'z hududida to'la hokimiyatga ega bo'ladi, o'zini-o'zi boshqaradi hamda rivojlanishini mustaqil tartibga soladi. Fuqarolarning huquqlarini himoya qilishni ta'minlash masalasi maxsus bitimlar bilan tartibga solinadi.

3-modda: Oliy ahdlashuvchi tomonlar O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston Respublikasining hududiy yaxlitligini tan oladilar va hurmat qiladilar, SSSR doirasida tarkib topgan davlat chegaralarini o'zgarimas deb hisoblaydilar. Tomonlar Olmaota shartnomasida belgilangan chegaralarning daxlsizligiga qat'iy rioya qilish majburiyatini o'z zimmlariga oldilar.

4-modda: Oliy ahdlashuvchi tomonlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va xalqaro bitimlarda e'lon qilingan inson huquqlarini e'tirof etgan holda, Turkmanistonda yashovchi o'zbeklar hamda O'zbekistonda yashovchi turkmanlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan har tomonlama rivojlanishini, vijdon erkinligini va boshqa siyosiy hamda shaxsiy huquqlarini kafolatlaydilar. Shuningdek, tomonlar davlat va jamoat tashkilotlari darajasida milliy madaniyat markazlari hamda ijodiy tashkilotlar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalanish, jumladan, teleko'rsatuv va radioeshittirishlarni kengaytirish orqali ikki xalqning turmush tarzi va an'analarini targ'ib qilish zarurligini ta'kidladilar [1].

Tashrif yakunida ikki respublika hukumatlari o'rtasida 1992–1995-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy va madaniy hamkorlik to'g'risidagi bitim ham imzolandi [2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Turkmaniston hukumati va O'zbekiston Respublikasi hukumati o'rtasida shakllangan an'anaviy iqtisodiy va madaniy aloqalarga asoslanib, respublikalar xalq xo'jaligi tarmoqlarining barqaror faoliyatini ta'minlash maqsadida 1992-yilda savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi bitim tuzildi [3].

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning 1993-yil 14–15-aprel kunlari Turkmanistonga rasmiy safari ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni kengaytirishga xizmat qildi. Ushbu tashrif davomida tomonlar neft va tabiiy gaz qazib olish, qayta ishlash va tashish, bu sohada inshootlarni qurish hamda loyihalarni moliyalashtirish masalalarini muhokama qildilar. Shuningdek, jahon talablariga mos avtomobil va temiryo'llar qurish bo'yicha zarur choralarni ko'rishga kelishib oldilar.

1996-yil 16-yanvar kuni I.Karimov amaliy tashrif bilan Turkmanistonda bo'ldi. Chorjo'y shahrida S.Niyozov bilan muzokaralar olib borildi. Natijada davlat chegarasini qo'riqlashda hamkorlik qilish va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha bitimlar imzolandi. Bundan tashqari, sarmoyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish, havo yo'li, bojxona ishlari, uzoq muddatli savdo-iqtisodiy hamkorlik, daromad va mulkdan ikki yoqlama soliq olmaslik, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash hamda turizm sohalarida hamkorlik qilish bo'yicha 20 dan ortiq hujjatlar imzolandi.

2004-yil 19-noyabr va 2007-yil 18-oktabrdagi kelishuv hujjatlari ham do'stona munosabatlarni mustahkamlash va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qildi. 1991-yildan 2016-yilgacha ikki mamlakat rahbarlari o'rtasida 11 marotaba oliy darajadagi uchrashuvlar bo'lib o'tdi va 150 dan ortiq hujjatlar imzolandi. Hozirgi kunda ham Turkmaniston savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish maqsadida multimodal transport va tranzit yo'laklarini shakllantirish ustida ish olib bormoqda [4].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez va tarixiy tahlil kabi metodlaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar

2017-yilda O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi hamkorlik aloqalari yangi bosqichga ko'tarildi. Shu yilning 6–7-mart kunlari Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Prezidenti sifatida ilk xorijiy tashrifini Turkmanistonga amalga oshirdi. Uchrashuvda transport sohasida zamonaviy infratuzilma yaratish bo'yicha hamkorlikni davom ettirishga kelishib olindi. Ushbu hamkorlik doirasida Markaziy Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharq transport tizimlarini birlashtirish ko'zda tutilgan edi. Ayniqsa, Sharq–G'arb va Shimol–Janub yo'nalishlaridagi transport yo'laklarini rivojlantirishga, “O'zbekiston–Turkmaniston–Eron–Ummon” hamda “Afg'oniston–Turkmaniston–Ozarbayjon–Gruziya–Turkiya”

transport yo‘laklarini yaratishga alohida e‘tibor qaratildi [5].

2018-yil 23-aprel kuni Toshkent shahrida Ashxobod sayilgohi ochildi. 2016-yil noyabr oyida O‘zbekistonda Turkmaniston madaniyati kunlari, 2017-yilda esa Turkmanistonda O‘zbekiston madaniyati kunlari o‘tkazildi. Turkmaniston Prezidenti G.Berdimuhammedov 2018-yil 23-aprel kuni davlat tashrifi bilan O‘zbekistonga keldi va o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga doir 17 ta hujjat imzolandi.

Oliy darajadagi uchrashuv va muzokaralar natijalari O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi hamkorlik sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilganini ko‘rsatdi. Siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalaridagi hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilinib, ular yuzasidan qo‘shma qarorlar qabul qilindi. Sh.Mirziyoyev va G.Berdimuhammedov tomonidan umumiy qiymati 250 million dollardan ortiq bo‘lgan savdo shartnomalari va bitimlari imzolandi [6].

2021-yil 29-aprel kuni ikki davlat rahbarlari Ashxobod shahrida yana uchrashuv o‘tkazdilar. Keyingi yillardagi o‘zgarishlar sabab tovar ayirboshlash hajmi uch barobardan ziyodga ko‘payib, 2020-yil yakunlariga ko‘ra 530 million dollarga yetdi. Shuningdek, 150 dan ortiq qo‘shma korxonalar tashkil etildi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasi va Turkmaniston Respublikasi mustaqillikning dastlabki yillaridayoq tashqi siyosatda o‘zaro hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ydilar. Xususan, 1991-yildagi iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma ikki davlat do‘stlik aloqalarini mustahkamlashdagi ilk qadam bo‘ldi. Keyingi yillarda hamkorlik aloqalari bosqichma-bosqich rivojlantirildi.

Ikki mamlakat rahbarlari hududiy yaxlitlik, chegara daxlsizligi, fuqarolarning huquqiy manfaatlarini himoya qilish kabi dolzarb masalalar bo‘yicha kelishuvlarga erishdilar. Shuningdek, transport-logistika tizimini mustahkamlashga xizmat qiladigan oliy darajadagi uchrashuvlar tashkil etildi. Ushbu uchrashuvlar nafaqat ikki davlat, balki Markaziy Osiyo va Yevropa mamlakatlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston va Turkmanistonning muhim hamkorlik yo‘nalishlaridan biri energetika sohasi hisoblanadi. Tomonlar neftni qayta ishlash bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirish masalalarini muhokama qildilar va bu yo‘nalishdagi aloqalarni yanada mustahkamlash bo‘yicha muzokaralar olib bordilar. Bozor iqtisodiyoti, sarmoyalarni kengaytirish, turizm va madaniyat sohasidagi kelishuvlar mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning barqarorligini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ikki davlat tomonidan mintaqaviy va xalqaro maydonda tashqi hamkorlikni rivojlantirish maqsadida iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarida muntazam muzokaralar olib borilishi o‘zaro iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichini boshlab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Matyoqubov X. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. — Toshkent, 2021.
2. Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi. Milliy istiqlol davri. — Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.
3. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O‘zbekiston tarixi. — Toshkent: “Iqtisodiy-moliya”, 2006.
4. O‘zbekiston–Turkmaniston: do‘stona va ahil qo‘shnichilik munosabatlari rivojlanmoqda. — Manba: Yuz.uz
5. Turkmaniston Prezidentining O‘zbekiston Respublikasiga davlat tashrifi yakunlari bo‘yicha imzolangan shartnomalar va bitimlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. — Manba: Lex.uz
6. Xalq so‘zi gazetasi. — 1991-yil. — 4-son.